

HID KONSEPTI

Hakimov Muhammad Xo‘jaxonovich

Farg‘ona davlat universiteti professori, filologiya fanlari nomzodi

Qurbanov Akmal Tavakaljon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti Lingvistik: o‘zbek tili 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Paralingvistika sohasi tilshunoslikning ajralmas muhim bir bo‘lagi sisatida asrlar mobayniida tadqiq etildi va hozirgi kunda o‘rganilib kelinmoqda. Noverbal birliklar tarkibida turuvchi hid konsepti kommunikantlarning muloqoti jarayonida qanchalik muhim vosita ekanligi haqida ushbu maqolada o‘z tasdig‘ini topadi.*

Kalit so‘zlar: noverbal birliklar, olfaksiya, hid, ifor.

Noverbal birliklar tarkibida hid tushunchasi bilan bog‘liq tasavvurlar va ularning lisoniy ifodasi muhim o‘rin tutadi. “Olfaktor lingvistika bu hidlar tili va ularning rolini o‘rganuvechi fan bo‘lib, noverbal muloqot jarayoni orqali odamlarga, narsalarga, joylarga xos bo‘lgan hidlarni ifodalaydi. Hid orqali olingan ma’lumotlar boshqa birlikalar orqali qabul qilingan ma’lumotlarga qaraganda xotiramizda uzoqroq saqlanadi. Biz u yoki bu narsani bog‘laydigan subyekt yoki obyekt haqida ma’lumot hid vositasi orqali amalga oshadi. Hid orqali biror ma’lumotga ega bo‘lish qolgan barcha beshta sezgi a’zolaridan ko‘ra ahamiyati yuqori hisoblanadi. Hidlar orqali kommunikantlarning ijtimoiy-iqtisodiy sinfiga mansubligi, ularning holati (hid qanchalik yoqimli bo‘lsa, maqom shunchalik yuqori) va etnik tarkibi aniqlanadi. Hid orqali olingan ma’lumotlarni hisobga olish o‘zaro aloqa o‘rnatish uchun juda muhimdir”⁹. “...Olfaksiya hidlar tili haqidagi fan bo‘lib, u noverbal vositalar strukturasida hid kanaliga mansub axborotlarni o‘rganuvchi yangi soha”¹⁰ lardan biridir. Shu nuqtayi nazarga ko‘ra, olfaksiya noverbal kommunikativ sistemada borliq va uning elementlari bilan muloqotni amalga oshiruvchi hidlar tili haqidagi fan sohasi sanaladi¹¹. Mazkur soha bo‘yicha olib borilgan izlanishlarda hid komponenti bilan bog‘liq lisoniy ifoda vositalari turli sohalarning tadqiqot obyekti bo‘lganligini kuzatish mumkin. O‘zbek tilida hid bildiruvchi so‘zlar muayyan guruhlarni hosil qiladi. Bunda predmet, mavjudot, hayvon, shaxs, joy, vaqt va majoziy ma’nolarda qo‘llangan so‘zlar hid ma’nosini bildiruvchi olfaktor birliklar bilan birikma hosil qiladi. Masalan:

1. Predmet hidi: piyoz hidi, ovqat hidi, gul hidi, atir hidi.
2. Mavjudot hidi: hayvon hidi, it,mushuk hidi.
3. Joy hidi: jannat hidi, ravza hidi.
4. Shaxs hidi: insonlar tomonidan chiqadigan turli hidlar.
5. Vaqt hidi: bahor hidi.
6. Majoziy hid: gapning hidi, tutruqsizlik hidi, baxtiyorlik hidi, to ‘y hidi.

⁹ Жукова И.Н., Лебедько М.Г., Прошина З.Г., Юзефович Н.Г. Словарь терминов межкультурной коммуникации. / Под ред. М.Г. Лебедько и З.Г. Прошиной. М.: Флинта : Наука, 2013. 281 с.

¹⁰ Зыховская Н. Л. Ольфакторий русской прозы XIX века. Автореф. дис....док.филол. наук.-Екатеринбург, 2016.- С.4

¹¹ М. Бурханова. Ольфактор лингвистика. Монография. Фаргона, 2022. - В.46

*Yuborgan odaming ishning ishkalini chiqargan. Mol qo'ldan ketgan. Bu yangilik Kesakpolvonni taajjubga solmadi. "Krasnoyarga odam yuborish kerak", deyishgandayog, ishdan kuygan **latta isi** kelayotganini sezgan edi. Lekin o'yindagi kaltakning bir uchi baribir o'zining boshiga tegajagini esa hisoblamagandi.*

— Kimdan qo'rqding?

— Qo'rqmadim... Rostı, meni Haydar akam yuborgan edilar.

— Mehmonlari kim edi, rostdan tanimasmidtı?

— Sal-pal tanirdim. Xongireyning yigitlaridan edi. Bek aka, bu ishdan **latta hidi** kelib turibdi. Ularning niyati — qoradori.

— Qayoqdan bilasan?

— Gaplaridan fahmladim. Ozgina yuk ham olishdi.

— Ahmoq! Qo'lga tushib qolsang uchib ketarding-ku, o'ylamadingmi?

— Iljosiz edim...

— Qani o'sha mehmonlaring?

— Samarqandda kuzatdim, Maskovga uchib ketishdi.

— Haydar akangga hisob berdingmi?

— Ha.

(Tohir Malik "Shaytanat" 4-kitob)

Ushbu gapdagi **latta hidi** majoziy ma'noda qo'llanib kelinmoqda. Latta so'zi eski-tuski bo'lak ma'nosini anglatadi. Agar uni yoqib yoki tutatib ko'rsak, undan sassiq hid keladi. Inson bir-biri bilan muloqotga kirishganda uning gapidan hech qanday hid kelmaydi. Gap mavhum tushuncha bo'lib, uning biror hidi yo'q. Yuqoridagi jumlada esa konteksdan kelib chiqadigan bo'lsak, yozuvchi "**latta hidi**" orqali esa jamiyatimizdagı yomon illat bo'lgan qoradori, giyohvandlik kabi inson hayotiga zomin bo'ladigan yomon illatlar qoralangan, ularga salbiy munosabat bildirilgan Yozuvchi kitobxonga hid orqali ma'lum axborot ifodalashga harakat qilgan.

"Insonning hid bilish qobiliyati olamni anglash bilan bog'liq jarayonlardan biridir. Aslida hidga aloqador tushunchalar borliqning ma'lum qismi sifatida mutaxassislarni doimo qiziqtirib kelgan asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Inson sezgi organlari ichida hid bilish qobiliyati unchalik ahamiyatli deb qaralmagan bo'lsa-da, olamni gnesologik jihatdan o'zlashtirishda bu sezgi organi eng muhim vazifalarni bajarib kelgan, noverbal muloqot asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham hidlar burun orqali qabul qilinib, aql, ong yordamida idrok qilinadi"¹² degan konsepsiya ilmiy jihatdan asoslidir. M.A. Epaneshnikova fikriga ko'ra "... hid fenomeni antik davrdan beri olimlarni qiziqtirib kelgan, u davrda hodisaga umumfalsafiy nuqtayi nazardan yondashilgan, XVII asrga qadar hid haqidagi ilmiy tasavvurlar mohiyatida har qanday buyumdan taralayotgan hid, u bilan bog'liq axborotlarning inson miyasiga uzatilishi borasida turlicha fikrlar mayjud bo'lgan. Hidlarni qabul qilish mexanizmlari va uni sezish qobiliyati sistemasi XVIII-XIX asrlardagina tabiiy-ilmiy nazariya sifatida shakllana boshladi"¹³. Shuning uchun ham ol faktor muammolar dastlab tabiiy fanlar doirasidagina

¹² Мансурова А.Х. Репрезентация ольфакторного пространства в английском и татарском языках. Дис....канд. филол. наук.- Казан, 2016.- С.11-12.

¹³ Епанешникова М. А. Феномен запаха в культуре: особенности функционирования в сакральной и профанной сферах : автореф. дис. ... канд. культ. наук.- Екатеринбург, 2011. -С.10.

o'rganilgani ma'lum. Hid bilish organi yordamida turli narsa va buyumlarning hidini idrok qilamiz. Ularni ajratamiz va saralaymiz. Narsalarning hidi orqali inson miyasiga ma'lumotlarni yuboramiz. Insonlar o'zaro muloqotga kirishganda ol faktor birliklar bilan kommunikatsiyaga kirishish ulushi kam miqdorda bo'lsa-da, ammo ular orqali muhim bo'lgan ma'lumotlarni yetkazamiz va qabul qilamiz. Olfaktor vositalar ham qolgan sezgi a'zolarimiz kabi axborot tashishga xizmat qiladi. Bu jihatini yuqorida misol yordamida tahlil qilib o'tdik. Hid fenomeni dastlab tibbiyot sohasida ko'proq qo'llanilib kelingan. Hid orqali olimlar turli xil kasalliklarni aniqlashgan va ular bilan davolashga ham urinib ko'rishgan.

"Qadimgi grek olimlaridan biri bo'lgan Gippokrat tana hidlari yordamida bemor kasalliklarini aniqlagan. U o'lat bilan bog'liq kasalliklarda turli giyoh, efir va boshqa predmetlardan olingan suyuqlik hidlаридан foydalangan. Grek vrachlari bo'lmish Tamino va Kritolar murakkab kasalliklar: o'lat va boshqalarni davolashda turli iforlardan foydalanishgan. Mashhur tabib sifatida tanilgan Abu Ali ibn Sino o'zining bemorlar bilan ishlash amaliyotida peshob hidining o'zgarishi asosida tashxis qo'ya boshlagan"¹⁴. Demak, turli kasalliklarni aniqlashda va davolashda hidlардан samarali foydalanishganligini anglashimiz mumkin. Limon orqali ham ana shunday amaliyotni qo'llashimiz mumkinligini quyidagi ma'lumot yordamida dalillab o'tamiz:

Barchaga ma'lumki, limon – ozuqa moddalari va vitaminlarning ajoyib manbai. Limonning nordon va o'tkir ta'mi insonni tetiklashtiradi va immunitetimizga turli viruslar hamda kasalliklar bilan kurashishga yordam beradi. Biroq ko'pchilik bu mevaning foydali xususiyatlari haqida yetarlichha ma'lumotga ega emas. Shunday ekan, sizlarga limon xususiyatlariga oid ma'lumotlari bilan tanishib chiqishni tavsiya qilamiz. U nafaqat ijobiy ta'sir qiladi, balki xavotir hamda tushkunlik hissi bilan kurashishga ham yordam beradi.

Elita restoranlarining oldiga atayin limon daraxtlarini ekishadi, chunki ular mijozlarning bu yerda o'zini qulay va xavfsiz his qilishida katta rol o'ynaydi. Limon hidi hammiaga ham to'g'ri kelavermaydi! Ekspertlarning so'zlariga ko'ra, limon bosh terisini yaxshi tozalaydi. Limon teri bilan bog'liq muammolar – dog'lar, izlar va husnbuzarlarni bartaraf etishda juda foydali. Limonni ikkiga bo'ling va uni terining muammoli joylariga surting. Shuningdek, bu meva tanamizning "qaysar" qismlari – tirsak va tizzalarni tozalashda ham qo'l keladi. Bu mahsulotdan tirnoqlarni oqartirish, og'iz bo'shlig'idagi hidni yaxshilash va oyoqlardagi og'riqni davolashda foydalanish mumkin. Limon artrit, oshqozon-ichak kasalliklari va revmatizm kabi ko'plab kasalliklarni osonlikcha davolashi mumkin. Har kuni limon suvidan ichib turing! Shuningdek limon vabo va bezgak kabi kasalliklardan saqlashi mumkin. Bularning barchasiga sabab – limonning tabiiy qon tozalovchi vosita ekanlidigadir! Limonni kundalik iste'mol qilish qarish belgilarini bartaraf etadi. Bu mahsulot S, A, Ye vitaminlari, xrom, kaliy, magnuij va temirga boy.

Limon dan "tabiiy tetiklashtiruvchi" vosita sifatida foydalaning. Limonni shunchaki ikkiga bo'lib, yotoqxonada qoldiring. Limon hidi o'pka bilan bog'liq muammolarni bartaraf qilib, doim toza havodan nafas olishga imkon beradi. Agar sizni astma, shamollash va allergiya

¹⁴ Мансурова А.Х. Репрезентация ольфакторного пространства в английском и татарском языках. Дисс....канд. филол. наук.- Казан, 2016.- С.11.

bezovalta qilsa, oddiygina limon hidi sizning tomog'ingiz va yuqori nafas yo'llaringizni tozalashga qodir!

(O'zbek adabiy tili. Qo'llanma. B. 97-98.)

Xulosa qiladigan bo'lsak, hid fenomeni yordamida juda ko'plab axborotlarni qabul qilishimiz mumkin. Noverbal vositalar qatoridagi ulushi oz bo'lsa ham, lekin muloqot jarayonida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Hidga bo'lgan talabning oshishi bu sohani yana ham chuqurroq o'rghanishni talab qiladi va alohida soha sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Жукова И.Н., Лебедько М.Г., Прошина З.Г., Юзефович Н.Г. Словарь терминов межкультурной коммуникации. / Под ред. М.Г. Лебедько и З.Г. Прошиной. М.: Флинта : Наука, 2013. 281 с.
2. Зыховская Н. Л. Ольфакторий русской прозы XIX века. Автореф. дисс....док.филол. наук.-Екатеринбург, 2016.- С.4
3. М. Бурханова. Ольфактор лингвистика. Монография. Фаргона, 2022. - В.46
4. Мансурова А.Х. Репрезентация ольфакторного пространства в английском и татарском языках. Дисс....канд. филол. наук.- Казан, 2016.- С.11-12.
5. Епанешникова М. А. Феномен запаха в культуре: особенности функционирования в сакральной и профанной сферах : автореф. дис. ... канд. культ. наук.- Екатеринбург, 2011. - С.10.
6. Мансурова А.Х. Репрезентация ольфакторного пространства в английском и татарском языках. Дисс....канд. филол. наук.- Казан, 2016.- С.11.